



CRIMINOLOGICAL DESCRIPTION OF RECIDIVISM AND MEASURES TO PREVENT IT

Zarif Khakimov

Lecturer

Bukhara State University

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Criminology, Recidivism, Recidivism, Normal recidivism, Dangerous recidivism, Extremely dangerous recidivism

Received: 28.10.24

Accepted: 30.10.24

Published: 01.11.24

Abstract: This article provides information on the criminological description of recidivism and its factors, causes, and ways to prevent it, a general definition of a recidivist, and the study of the level of criminal activity of recidivists.

RESIDIV JINOYATCHILIKNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA UNING OLDINI OLISH CHORALARI

Zarif Xakimov

o'qituvchi

Buxoro Davlat Universiteti

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Kriminologiya, Residiv jinoyatchilik, Residivist, Oddiy residiv, Xavfli residiv, O'ta xavfli residiv

Annotatsiya: Ushbu maqolada residiv jinoyatchilikning kriminologik tavsifi va uning kelib chiqish omillari, sabablari hamda uni oldini olish yo'llari, residivist shaxsining umumiy ta'rifi, residivistlarning jinoiy faollik darajasini o'rganish to'g'rida ma'lumotlar keltirilgan.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РЕЦИДИВИЗМА И МЕРЫ ЕГО ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

Зариф Хакимов

преподаватель

Бухарский государственный университет

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Криминология, Рецидив, Рецидивист, Нормальный рецидивист, Опасный рецидивист, Рецидивист группы высокого риска	Аннотация: В статье представлены сведения о криминологической характеристике рецидивизма и его факторов, причин и способов его предотвращения, общее определение рецидивиста, а также исследование уровня преступной активности рецидивистов.
---	--

«Kriminologiya» soʻzi ikki oʻzakdan iborat: krimen (lotincha) - jinoyat, jinoiy xulq-atvor, logos (yunoncha) - fan, taʼlimot, bilim. Binobarin, “kriminologiya” - bu jinoyat yoki jinoiy xulq-atvor haqidagi fan. Kriminologiyaning paydo boʻlish tarixi diqqatga sazovor. Ayrim tadqiqotchilar fikriga koʻra, kriminologiyaning vujudga kelishi 1764-yilda italiyalik huquqshunos olim Chezare Bekkariyaning “Jinoyatlar va jazolar haqida” degan kichkina, biroq sarmazmun kitobi nashr etilishi bilan bogʻliq. Oradan 120 yil oʻtgach, 1884-yilda Turin shahri (Shimoliy Italiya)da italiyalik sudya R.Garofalo “Kriminologiya” yoki “Jinoyatchilik tabiati hamda jazo nazariyasi” nomli “Jinoyatchilik”, “Jinoyatchi” va “Jazo” qismlaridan iborat boʻlgan risolasini chop etdi. Shunday qilib, kriminologiya fanining paydo boʻlishida italiyaliklar oʻz peshqadamligi bilan faxrlanishlari mumkin.[1]

Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa sifatida insoniyatning eng ilgʻor qismini har doim qiziqtirib, tashvishga solib kelgan. Insoniyat qancha vaqtdan beri mavjud ekan, har doim har qanday ijtimoiy xavfli qilmishlarga qarshi kurashib kelgan. Nima sababdan ayrim odamlar jinoyat sodir qiladi? Hatto bir xil muhit sharoitida yashab oʻsgan odamlarning ayrimlari nega jinoyat yoʻliga kirib ketadi? Ushbu muammo juda qadim zamonlardanoq; turli yoʻnalishdagi fan namoyandalarining, ayniqsa, faylasuflar, ruhshunoslar, tibbiyot olimlari va nihoyat huquqshunoslarning diqqatini tortib kelgan. Har bir muayyan jinoyat - jinoyatchilikning “elementar zarrasi”[2] Har qanday jinoyat inson xulq-atvorining muayyan koʻrinishidir. Psixologiyaga oid adabiyotlatda xulq-atvor deganda shaxsning erkin faolligi, yaʼni koʻzlangan maqsad anglab etilgan va yuz berayotgan jarayonlarni nazorat qilish imkoniyati mavjud boigan faollik tushuniladi. Loʻndaroq qilib aytganda, subʼekt uchun muayyan mazmun kasb etuvchi xulq-atvorni inson xulq-atvori deb tavsiflash mumkin.[3] Boshqacha aytganda, bu yerda shaxsning ongli, shu jumladan yanglish, salbiy va gʻayrihuquqiy xulq-atvori toʻgʻrisida soʻz yuritilmoqda.

Residiv tushunchasi, uning turlari va tavsifi masalalari jinoyat huquqi huquq nazariyasi va kriminologiyada koʻp yillardan beri oʻrganilib kelinadi. Shunga qaramay, takroriy jinoyat sodir etgan shaxsni residivistlar qatoriga, koʻrib chiqilayotgan hodisani esa residivga kiritish imkonini beruvchi belgilarni tanlash yuzasidan kiritilgan muayyan takliflar oʻrtasida jiddiy tafovutlar mavjud. Bu tafovutlar muayyan darajada obʼektiv xususiyatga ega, chunki «residiv» tushunchasi turli fanlar: jinoyat huquqi, kriminologiya, axloq tuzatish-mehnat (jinoyat-ijroiya) huquqiy

vakillari tomonidan qo'llaniladi. Tegishli ravishda huquqiy (legal), kriminologik, penitensiar residiv farqlanadi.[4]

Residiv faqat og'ir jinoyatlar sodir etish yoki aybdor jinoyat sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum qilinganligi shartlari bilan chegaralashga urinishlarni ham o'rinli deb bo'lmaydi. Kriminologik tadqiqotlar ko'pgina ashaddiy jinoyatchilar o'z jinoyat faoliyatini ijtimoiy xavflilik darajasi uncha katta bo'lmagan jinoyatlardan boshlaganligini va aksincha, residivistlarning asosiy tarkibigi keyingi jinoyatlarning xavflilik darajasini pasaytirish xosligini ko'rsatadi. [5] Shu bois ko'pgina uncha og'ir bo'lmagan takroriy jinoyatlari "residiv" tushunchasi doirasidan chiqarish va faqat og'ir yoki turdosh jinoyatlarni hisobga olish residivga to'g'ri baho berish imkoniyatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Ayrim mutaxassislar residivni faqat bir belgi - takroriylik bilan bog'laydilar. Boshqacha aytganda, residiv va takroriylik tushunchalari tenglashtiriladi. Bu yondashuv birinchi marta jazoga hukm qilinadigan shaxslar orasida bungacha ikki va undan ortiq jinoyat sodir etgan shaxslar ham borligi va ular residivist deb topilishi lozimligi bilan asoslanadi [6]. Bizning nazarimizda, mazkur yondashuv residiv va takroriylik tushunchalari o'rtasida farq yo'qolishiga olib kelishi va pirovardida residiv umumiy tushunchasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu munosabat bilan X. Kings keltirgan dalillarga qo'shilish mumkin. Uning fikricha, yuqorida zikr etilgan yondashuvning yangiligi shundaki, ayni holda faqat ikki jinoyat sodir etgan residivist tarozining bir pallasiga, ko'p sonli jinoyatlar sodir etgan jinoyatchi esa - ikkinchi pallasiga qo'yiladi. Vaholanki, bu ikki shaxs teng miqdorda o'xshash jinoyatlar sodir etgan holdagina taqqoslash o'rinli bo'ladi. Shunday qilib, jinoyatlar residivini ikki asosiy belgi: takroriylik hamda sudlanganlikning mavjudligiga ega bo'lgan ko'p sonli jinoyatlar sodir etish turlaridan biri sifatida ta'riflash mumkin.[7]

Residivist shaxsining umumiy ta'rifi ham muhim ahamiyatga ega. U har bir guruhning umumiy tizimdagi o'rini aniqlash uchun zarur. Shu sababli residiv va uning turlari tushunchasining ko'pgina qoidalari residivist shaxsi va uning tiplari tushunchasiga ham taalluqli. Umuman kriminologiyada jinoyatchi shaxsi muammosini o'rganish uzoq yillik tarixga ega. Xususan, 1897-yil Xalqaro kriminalistlar uyushmasining Geydelbergda bo'lib o'tgan anjumanida jinoyatchilarning quyidagi tasnifi qabul qilindi:

- 1) tasodifiy jinoyatchilar;
- 2) xulq-atvori beqaror bo'lgan yoki bir necha marta jinoyat sodir etgan jinoyatchilar;
- 3) ashaddiy yoki professional jinoyatchilar. [8]

Residiv jinoyatchilik – bu bir necha marta qonunni buzgan shaxs tomonidan amalga oshiriladigan takroriy jinoyatdir. Odatda, residiv jinoyatchilik og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslar tomonidan sodir etilishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda shaxs o'z harakatlari oqibatini bilgan holda, ijtimoiy qadriyatlarni tan olmaydi yoki ularga qarshi faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida residiv jinoyatchilik bo'yicha alohida modda va uning kelib chiqishini cheklashga qaratilgan choralar mavjud. Residiv jinoyatchilikning asosiy sabablari

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Ishsizlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va ma'lumot yetishmasligi ko'pincha qayta jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi.

2. Ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning zaifligi: Shaxsiy va oilaviy tarbiyaning yetarli emasligi ham jinoyatchilikka yetaklovchi asosiy sabab bo'lishi mumkin.

3. Shaxsiy psixologik omillar: Shaxsning irodasi zaifligi yoki o'zini nazorat qilish qobiliyatining pastligi ham qayta jinoyat sodir etishga olib kelishi mumkin.

4. Huquqiy savodsizlik: Ba'zi jinoyatchilar o'z huquq va majburiyatlarini to'g'ri tushunmasligi sababli jinoyatga qo'l uradi.

Residiv jinoyatchilikning bir nechta shakllari mavjud:

1. Oddiy residiv: Shaxs bitta yoki bir necha yengil jinoyatlarni sodir etadi va keyinroq boshqa yengil jinoyatga qo'l uradi.

2. Xavfli residiv: Shaxs og'ir jinoyatlarni takroran sodir qiladi va bu holatlar odatda jiddiy ijtimoiy zarar yetkazadi.

3. O'ta xavfli residiv: Ushbu toifada shaxs o'ta og'ir jinoyatlarni takroran amalga oshiradi va bunday jinoyatchilik uchun yanada jiddiy jazo chorasi ko'riladi.

Kriminologiyada residivistlarning jinoiy faollik darajasini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bir guruh tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan bunday tadqiqot ularga residivistlarning uch tipologik guruhini: faol kriminogen tip, beqaror tip va axloqiy buzuvchi tipni ajratish imkonini berdi. Ajratilgan tiplarning har biriga jinoiy xulq-atvorning boshqa faoliyat turlari bilan alohida nisbati xos bo'lib chiqdi. Residivistlarning har-xil tiplarida turmush ijtimoiy shart-sharoitlari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillar xususiyati har xil. Jinoiy harakatlar o'rtasida izchil aloqa mavjudligi, ular qasddan sodir etilganligi, o'ziga xos ko'nikmalar va usullardan foydalanilganligi shaxs jinoiy faollik darajasining yuqoriligidan dalolat beradi. Bizning fikrimizcha, K.E. Igoshev taklif qilgan tipologik guruhlarining birinchisini jinoyat sodir etuvchi shaxslar orasida uchraydigan jinoyatchi shaxsining uch tipiga ajratish mumkin:

1) izchil-kriminogen tip;

2) situativ-xavfli tip;

3) situativ tip.

Izchil-kriminogen tipga mansub residivistlarga izchil jinoiy xulq-atvor: faol ko'p karra residiv; izchil maxsus residiv (ayniqsa tamagirlik jinoyatlari) xos. Bu tipda o'ta xavfli residivistlar va professional jinoyatchilar yetakchilik qiladi. Residivda jinoyatlar sub'ekt g'ayriijtimoiy moyilliklari va mo'ljallarining mustahkamligi bilan belgilanadi. Situativ-xavfli tipga mansub

residivistlar stixiyali ravishda, noizchil harakat qiladilar. Jinoyat sodir etishga qasd ba'zan bir vaqtda yuzaga keladi, jinoyat xususiyati yuzaga kelgan vaziyatga bog'liq bo'ladi, biroq odatda og'ir oqibatlarga olib keladi. Ushbu tipda spirtli ichimliklarni suiste'mol qiluvchi shaxslar yetakchilik qiladi, ular shuning zamirida bezorilik harakatlari hamda boshqa jinoyatlarni ko'p sodir etadilar. O'z shaxsiy xususiyatlariga ko'ra bu tipga mansub residivistlar bir xil emas. Situativ tip esa odatda, umumiy, ba'zan ko'p martali residiv qayd etiladi. Bu tipga mansub residivistlar xulq-atvori og'ir oqibatlarga sabab bo'lmaydi. Ko'pincha sodir etilgan jinoyatlar o'rtasida ichki bog'lanish kuzatilmaydi.

Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy choralar quyidagilardan iborat:

1. Huquqiy tizimni kuchaytirish: Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqiy tizimni isloh qilish, jazo choralari takomillashtirish va qonunchilikni mustahkamlash muhim rol o'ynaydi.

2. Ijtimoiy ko'mak dasturlari: Ijtimoiy yordam dasturlari orqali og'ir sharoitda yashayotgan shaxslarga yordam ko'rsatish, ularni mehnat bozoriga jalb qilish.

3. Ta'lim va ma'naviy-axloqiy targ'ibot: Jinoyatchilarni ma'naviy tarbiyalash va huquqiy savodxonligini oshirish orqali qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish mumkin.

4. Rehabilitatsiya markazlari: Jinoyatdan qaytgan shaxslar uchun rehabilitatsiya markazlarini yaratish va ularni jamiyatga qayta moslashtirish jarayonini kuchaytirish.

Residiv jinoyatchilikning oldini olish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muhim:

1. Ijtimoiy moslashuv dasturlari: Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar ozodlikka chiqqandan keyin jamiyatga qayta moslashishlari uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim. Bu dasturlar psixologik yordam, kasbiy ko'nikmalar va ijtimoiy ko'makni o'z ichiga oladi.

2. Ta'lim va malaka oshirish: Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni kasb-hunar va ta'lim dasturlari bilan ta'minlash kerak. Bu ularga ozodlikka chiqqandan so'ng ish topish imkoniyatini yaratadi va jinoyatga qaytish ehtimolini kamaytiradi.

3. Bandlik va ishga joylashish: Ishga joylashish imkoniyatini oshirish uchun maxsus dasturlar va mehnat bozoriga moslashishni qo'llab-quvvatlash kerak.

Shu maqsadda ish beruvchilarni sobiq mahkumlarni ishga qabul qilishga undaydigan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy qilish mumkin.

4. Psixologik va tibbiy yordam: Ko'plab jinoyatchilar psixologik yoki ruhiy muammolarga ega bo'lishadi. Davolash, psixologik yordam va rehabilitatsiya orqali ularning muammolarini hal qilish, jinoyat sodir etishga undovchi sabablarni bartaraf etishda yordam beradi.

5. Jamiyatning qo'llab-quvvatlashi: Jamiyat tomonidan qabul qilinish hissi muhim ahamiyatga ega. Ko'pincha sobiq mahkumlar jamiyat tomonidan rad etiladi, bu esa ularning

jinoyatga qaytish ehtimolini oshiradi. Mahalliy jamoalar va ijtimoiy tashkilotlar yordamida ularga moslashishda ko'mak berish kerak.

6. Qayta jinoyatchilik profilaktikasi bo'yicha kuchli qonunchilik: Jinoyatga qaytishning oldini olishga qaratilgan qat'iy qonunchilik va davlat tomonidan amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlar ham muhim hisoblanadi.

7. Aholi ongini oshirish: Jinoyatchilikning oldini olishda jamiyatning roli ham muhim. Aholi o'rtasida jinoyatchilik profilaktikasi bo'yicha axborot-targ'ibot ishlarini olib borish orqali odamlarning jinoyatga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin. Ushbu chora-tadbirlar orqali residiv jinoyatchilikka qarshi kurashda sezilarli natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Residiv jinoyatchilik – jamiyatni muqarrar ravishda xavf ostida qoldiradigan murakkab muammo. Ushbu muammoni yechish uchun davlat bilan jamoatchilik o'zaro hamkorlikda huquqiy, ijtimoiy va psixologik chora-tadbirlarni yanada kuchaytirishi lozim. Residiv jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha aniq choralar ko'rilgan holda, jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga erishiladi. Ijtimoiy ongni oshirish, huquqiy targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish orqali qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent Davlat Yuridik instituti Q.R.Abdurasulova "Kriminologiya" Toshkent «Adolat» 2007 3-4 bet
2. Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. - М., 1998. - С. 16.
3. Хеккаузен Х. Мотивация и деятельность. Том 1. ~ М., 1986. -С. 14.
4. Карпец И.И. Проблема преступности. - М., 1969. - С. 113-115; Кузнецова Н.Ф. Преступление и преступность. - М., 1969. - С.179; Резидивная преступность: понятие и криминологическая характеристика / Пиедре А.М. и др. - Рига, 1963.-С.10-М
5. Блувштейн Ю.Д. О некоторых закономерностях рецидивного поведения (модель "эволюции" рецидивной преступности) // Сб. научных работ ЛитНИИСЕ. - Вильнюс, 1980. Вып. 6. - С.19&; Зелинский А.Ф. Резидив преступлений (структура, связи, прогнозирование): Автореф. дис.... докт. юрид. наук.-М., 1978.-С. 17.
6. Утевский Б.С. Основные вопросы советской науки исправительно-трудового права // Советское государства а право. 1987. Лг 3. - С.35-39. Кинге Х. - Б.50.
7. Мал ков В.П. Множественность преступлений и ее формы по советскому уголовному праву. - Казань. 1982. - С.91; Кафаров Т.М. - Б.25; Караев Т.Е. Повторность преступлений. - М., 1983. - С.29;
8. Игошев К.Е. Ко'rsatilgan asar. -Б.7